Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими
бюджетларининг ғазна ижроси қоидаларига
8-ИЛОВА

**13.12.2022 даги**

**"JAHONGIR VISOLA ZARAFSHON" xususiy korxonasi ва Зарафшон шахар Ободонлаштириш бошкармаси ўртасида 39000000,00сўм умумий суммага тузилган 2 - сонли шартномага**

## ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб 110

Шахсий ғазна хисобварақ 100022860124087065100110006

сўмда

| 2022 й. ойлар номи. | Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди) | | | Жами |
|---|---|---|---|---|
| | 4252110 | | | |
| Январь | | | | |
| Февраль | | | | |
| Март | | | | |
| Апрель | | | | |
| Май | | | | |
| Июнь | | | | |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | | | | |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | 39 000 000,00 | | | 39 000 000,00 |
| **Жами йил бўйича** | **39 000 000,00** | | | **39 000 000,00** |

Жами 39000000,00сўм Ўттиз тўққиз миллион сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 11700000,00 сўм ёки 30,00%*** шартноманинг умумий суммасидан ______ % ***2022 декабр ойида тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига ______% жорий ойнинг _____ санасигача хар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун хужжатларида назарда тутилган хар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш холларида тўлдирилади).

Буюртмачи рахбари ______ (имзо) Курбанов Карим Жумаевич Ф.И.Ш.

М.Ў.

Буюртмачи бош бухгалтери ______ (имзо) Джалилов Иляс Исраилжонович Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг ходими қабул қилди ______ (имзо)

«___» ________________ 20___й.

Буюртмачи ходими қабул қилди ______ (имзо)

«___» ________________ 20___й.

# О Л Д И – С О Т Д И  Ш А Р Т Н О М А С И   №2

**Зарафшон шахар** **«13 » Декабрь 2022 й**

**"JAHONGIR VISOLA ZARAFSHON" xususiy korxonasi** кейинги ўринларда ”Сотувчи” деб юритилади. Ўзининг устави асосида иш юритувчи Рахбар **С.Холиков** бир томондан - Зарафшон шахар Ободонлаштириш бошкармаси олувчи деб юритилади, узининг низоми асосида иш юритувчи рахбар **-К.Курбанов** иккинчи томондан мазкур шартномани қуйидагилар ҳақида туздилар.

## 1. ШАРТНОМАНИНГ ПРЕДМЕТИ.

1.1Сотувчи ўзига тегишли бўлган товар (маҳсулот)ни ушбу спецификацияга асосан Сотиб олувчига мулк қилиб топшириш, Сотиб олувчи эса товар(маҳсулот)ни кабул килиш ва ушбу Шартномада белгиланган муддатларда тўлаш мажбуриятини олади.

1.2

| № | Наименование товаров (работ,услуг) | Ед. изм | Кол-во | Цена | Стоимость поставки |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Қурилиш Куми | $М^3$ | 500 | 78000 | 39000000 |
| | **Жами:** | | | | **39000000** |

1.3. Бажарувчи ўз таваккалчилигига асосланган ва ўзининг материалларидан фойдаланган ҳолда Буюртмачининг топшириғига асосан қуйидаги ишларни бажариш мажбуриятини олади:

## 2. ТЎЛОВ ШАРТЛАРИ

2.1. Шартнома умумий суммаси **39000 000 ( Ўттиз тўққиз миллион ) сўм**

2.2. Сотиб олинадиган Товар (махсулот) учун олдиндан тулов миқдори 11700000 сумни, яъни, белгиланган сумманинг 30 фоизини ташкил қилади ва бу олдиндан тўлов 2022 йилнинг декабрь ойида амалга оширилади. Якуний тўловнинг миқдори эса 27300000,00 сўмни, яъни, келишилган сумманинг 70 фоизини ташкил этади ва бу якуний тўлов ҳисоб-фактура (ёки ишлар бажарилганлигини тасдиқловчи ҳужжат) тақдим қилингандан сўнг амалга оширилади.

2.3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар махкамасининг 2021 йил 16 мартдаги 139-сонли қарорига асосан бюджетдан маблағ олувчиларнинг товарлар (ишлар, хизматлар) буйича тузиладиган шартномаларида, қоидага кўра, 30 фоиз миқдорида олдиндан ҳақ тўлаш назарда тутилган.

2.4. Тўлов шакли накд пулсиз пул кўчириш йўли билан амалга оширилади.

## 3. ТАРАФЛАРНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ

3.1. Сотувчининг мажбуриятлари:

3.1.1. Товар (маҳсулот)ни шартнома талабларига жавоб берадиган ҳолатда сотиб олувчига ўз вақтида топшириш.

3.1.2. Товар (маҳсулот)ларнинг сифати ушбу гурухи учун амалдаги стандартларга мувофик келиши керак.

3.1.3. Сотувчи тўпламда яроксиз, сифати лозим даражада бўлмаган товарлар (махсулот) мавжудлиги хакида хабар олган пайтдан бошлаб 3 кун ичида сифатсиз товар (маҳсулот)ни сифатлисига алмаштириш ёки ушбу шартноманинг 1.2.-бандига мувофиқ сифати лозим даражада бўлмаган товарнинг пулини қайтариб беради.

3.1.4. Транспорт харажатларини ўз ҳисобидан тўлайди.

3.1.4. Сотувчи Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилигига мувофиқ товар (маҳсулот)га бўлган кафолат муддатларини тақдим этади.

3.2. Сотиб олувчининг мажбуриятлари:

3.2.1. Қабул қилиш далолатномасини расмийлаштирган ҳолда ушбу шартнома ва қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда ва муддатда товарни миқдори, сифати ва бутланиши бўйича қабул қилиб олади.

3.2.1. Қабул қилиш далолатномасини расмийлаштирган ҳолда ушбу шартнома ва қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда ва муддатда товарни миқдори, сифати ва бутланиши бўйича қабул қилиб олади.

3.2.2. Сифати лозим даражада бўлмаган товар келтирилганлиги аниқланган тақдирда, ушбу товарнинг сифати лозим даражада эмаслиги ҳақида далолатнома расмийлаштирилган пайтдан бошлаб 3 кун ичида сотувчини хабардор қилади.

3.2.3. Шартномада белгиланган миқдорда, тартибда ва муддатда товар ҳақини тўлаш.

## 4. ШАРТНОМАГА ЎЗГАРТИРИШ ВА ҚЎШИМЧАЛАР КИРИТИШ

4.1. Шартномага ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш томонларнинг розилигига кўра қўшимча битимни расмийлаштириш йўли билан амалга оширилади. Шартномага ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақидаги битим у ёзма шаклда бўлгандагина ва томонлар уни имзолаганларидагина ҳаққонийдир.
4.2. Томонларнинг шартнома шартларига киритган қўшимча ва ўзгартиришлари унинг ажралмас қисми бўлиб ҳисобланади, улар албатта инобатга олиниши зарур.

## 5. ТАРАФЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

5.1.Ишни топшириш муддатини бузганлик учун айбдор тараф иккинчи тарафга кечиктирилган ҳар бир кун учун шартнома қисмининг 0,5 % миқдорида, лекин кўрсатилган хизматларнинг 50% дан ошмаган миқдорда пеня тўлайди.
5.2 Тўловни кечиктирилганлиги учун "Буюртмачи" "Бажарувчи"га ҳар бир кечиктирилган кун учун, тўловни кечиктирилган қийматининг 0,4 % миқдорида, лекин ушбу сумманинг 50%дан ошмаган миқдорда пеня тўлайди.
5.3. Кўрсатилган "Хизматлар" учун ўз вақтида ҳақ тўланмаганда "Буюртмачи" "Бажарувчи"га муддати кечиктирилган ҳар бир кун учун кечиктирилган тўлов суммасининг 0,4 фоизи миқдорида пеня тўлайди, бироқ бу кечиктирилган тўлов суммасининг 50 фоизидан ортиқ бўлмаслиги керак.
5.4.Неустойкани тўлаш тарафларни шартнома бўйича ўз мажбуриятларини бажаришданозод қилмайди.
5.5.Мазкур шартномада назарда тутилмаган тарафларнинг жавобгарлиги Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун хужжатларига мувофиқ белгиланади.
5.6 Мазкур шартнома икки томонлама имзоланиб тўлов 100% амалга оширилгандан сўнг шартноманинг бир нусхаси "Бажарувчи"га қайтарилиши лозим

## 6. ШАРТНОМАНИНГ АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ

6.1. Мазкур шартнома 2014 йил 1 январдан амалга киритилган Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодексининг 122-моддаси хамда Узбекистон Республикаси Вазирлар махкамасининг 2021 йил 16 мартдаги 139-сонли қарорига асосан шартнома тегишли тартибда газначилик булими руйхатидан утказилгандан сунг конуний кучга киради ва 2022 йил «31» декабргача амалда бўлади.
6.2. Мазкур шартнома икки нусхада тузилиб, бир хил юридик кучга эга бўлиб ҳисобланади ва томонларнинг ҳар бири учун бир нусхадан берилади.
6.3. Шартнома муддатидан олдин қуйидаги ҳолларда бекор қилиниши мумкин:
- томонларнинг келишувига мувофиқ;
- Ўз.Р. қонунчилик хужжатларида назарда тутилган ҳолларда.
- Форс-Мажор холатларида

## 7. НИЗОЛАРНИ ХАЛ ҚИЛИШ

7.1. Тарафлар шартномада кўрсатилган мажбурият ва шартларни бажармаган тақдирларида Ўз.Р. Фуқаролик кодекси ва "Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-хуқуқий базаси тўғрисида"ги қонуни ҳамда бошқа қонун хужжатлари асосида жавобгар бўладилар.
7.2. Тарафлар ўртасида келиб чиқадиган низолар ўзаро келишув асосида, агар тарафлар келиша олмасалар низолар Ўз.Р. "Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-хуқуқий базаси тўғрисида"ги қонунга ва Фуқаролик кодексига асосан иктисодий суди тартибида хал қилинади
7.3. Келишмовчиликлар юзага келган тақдирда барча масалалар икки томонлама музокаралар йўли билан хал қилинади, келишиш имкони бўлмаганда эса Навоий вилоят Зарафшон шахар Иктисодий судида хал қилинади.

## 8. КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ ШАРТЛАРИ

8.1. Ҳар бир тараф шартнома тузилган пайтда бевосита ўзи ёки унинг ижроия органлари, мансабдор шахслари ва ходимлари томонидан шартнома билан боғлиқ муносабатлар юзасидан қуйидагиларни кафолатлайди:

- қонунга хилоф равишда пул, моддий қийматликлар берилмаганлигини;
- шартнома тузилиши эвазига норасмий пул ёки бошқа моддий қийматликлар олинишига йўл қўйилмаганлигини, таклиф этилмаганлигини, уларни беришга ваъда қилинмаганлигини;
- моддий ёки ҳар қандай турдаги имтиёз олинмаганлигини.

8.2. Тарафлар улар томонидан шартнома доирасида жалб қилинган шахсларнинг (ёрдамчи пудратчи ташкилотлар, агентлар ва тарафлар назорати остидаги бошқа шахсларнинг) юқоридаги ҳаракатларни содир этмаслиги юзасидан оқилона чоралар кўради.

8.3. Тарафлар уларнинг назорати остида бўлган ва улар номидан ҳаракат қиладиган шахслар юқоридаги мажбуриятлар бузилганлиги ҳолатлари ҳақида хабар берилганлиги учун уларга тазйиқ ўтказилмаслигини кафолатлайди.

8.4. Шартноманинг тарафи ва у томонидан жалб қилинган шахслар (ёрдамчи пудратчи ташкилотлар, агентлар ва тарафлар назорати остидаги бошқа шахслар) томонидан коррупцияга карши қўшимча шартларга риоя этилмаганда, иккинчи тараф шартномани бир тарафлама тўхтатиб туришга, бекор қилишга ҳамда зарарни қоплаб беришни талаб қилишга ҳақли бўлади.

## 9. БОШҚА ШАРТЛАР

9.1. Мазкур Шартномага киритиладиган барча ўзгартириш ва қўшимчалар ёзма шаклда тузилиши ва хар иккала тарафлар оркали имзоланиши керак

## 10. Томонларнинг юридик манзиллари ва банк реквизитлари

**«Сотувчи»**

**"JAHONGIR VISOLA ZARAFSHON" xususiy korxonasi**

**Манзил: Зарафшон шахар 11 кичик туман 8-uy, 32-xonadon**

Тел/Факс: 883790229

Ш/хв _20208000305076805001

КОНХ:

ИНН: 306419500

Банк номи Национальный банк Зарафшанский филиал,__

МФО: 00204

Рахбар: ________________ С.Холиков

(имзо)

________________________________

(имзо)

**«Сотиб олувчи»**

**Ободонлаштириш Бошкармаси**

________________________________

(бюджетдан маблағ олувчининг номи)

**Манзил: Зарафшон шахар Бахор МФЙ**

**Тел/факс: 79 572 12 34**

**ш/хв: 100022860124087065100110006**

бюджетдан маблағ олувчи **СТИРи: 207115430**

**ОКОНХ: 81300**

**Ғазначилик бўлинмаси номи: Зарафшон шахар**

**Ғазна х/в: 23402000300100001010**

**Банкнинг номи: Марказий банк Тошкент шахри**

**МФО:00014**

Ғазначилик бўлинмаси **СТИРи: 201122919**

**Рахбар:** ________________

(Ф.И.Ш)

________________________________

(имзо)

Navoiy viloyati Zarafshon shahar
Davlat xizmatlari markazi tomonidan
2019-yil 14-mayda
722720-son reestr
raqami bilan

«RO'YXATGA OLINGAN»

«JAHONGIR VISOLA ZARAFSHON»
xususiy korxonasi ishtirokchilari
2019-yil 14-maydagi 1-son umumiy yig'ilishi
bayonnomasi bilan

«TASDIQLANGAN»

# «JAHONGIR VISOLA ZARAFSHON» XUSUSIY KORXONASINING USTAVI

Zarafshon shahri – 2019

Y/P: 2020800030507680 1001. MФO: 00204.

— Pollarni qoplash va devor sirtini qoplash;
— Boshqa pardozlash ishlari;
— Tom yopish ishlari;
— Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi;
— Ixtisoslashgan do‘konlarda mevalar va sabzavotlar chakana savdosi;
— Ixtisoslashgan do‘konlarda baliq, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalar chakana savdosi;
— Spirtli ichimliklar chakana savdosi;
— Spirtsiz ichimliklar va pivoning chakana savdosi;
— Ixtisoslashgan do‘konlarda maishiy elektr tovarlari chakana savdosi;
— Ixtisoslashgan do‘konlarda gilamlar va gilam mahsulotlari chakana savdosi;
— Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa devor va pol qoplamalari chakana savdosi;
— Ixtisoslashgan do‘konlarda kiyimlar chakana savdosi (trikotaj va paypoq-noski buyumlaridan tashqari);
— Ixtisoslashgan do‘konlarda poyafzal chakana savdosi;
— Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi;
— Do‘konlar, chodirlar va bozorlardan tashqaridagi boshqa chakana savdo;
— Avtomobil transportida yuk tashish;
— Ko‘chish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish;
— To‘qimachilik buyumlari va mo‘ynali buyumlarni yuvish va kimyoviy tozalash;
— Sartaroshxonalar va go‘zallik salonlari xizmatlari;
— Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar;
— Toshni kesish, ishlov berish va pardozlash;
— Temir yo‘l lokomotivlari va harakatdagi sostavlar, jumladan tramvaylar, metro vagonlari va trolleybuslarni ta’mirlash, texnik xizmat ko‘rsatish;
— Bo‘yoqchilik va oyna solish ishlari;
— Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi;
— Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish;
— Abraziv buyumlar ishlab chiqarish;
— Boshqa toifalarga kiritilmagan nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish;
— Ofis va magazinlar uchun mebel ishlab chiqarish;
— Elektr uskunalarni ta’mirlash;
— Boshqa toifalarga kiritilmagan transport uskunalarining boshqa turlarini ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish;
— Sanoat texnika va uskunalarini montaj qilish (yig‘ish);
— Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari;
— Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi;
— Ixtisoslashgan do‘konlarda go‘sht va go‘sht mahsulotlari chakana savdosi;
— Ixtisoslashgan do‘konlarda tamaki mahsulotlari chakana savdosi;
— Ixtisoslashgan do‘konlarda trikotaj va paypoq-noski buyumlari chakana savdosi;
— Ixtisoslashgan do‘konlarda charm buyumlar chakana savdosi;
— Ilgari iste’molda bo‘lgan tovarlar chakana savdosi;

Korxona maxsus ruxsatnoma (litsenziya) kerak bo‘lgan faoliyat turlarini maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olgandan keyingina amalga oshiradi.

## III. KORXONANING USTAV FONDI

3.1. Korxonaning ustav fondi **1 000 000 (bir million)** so‘m miqdorida tashkil etiladi.

Pul, qimmatli qog'ozlar, pul bilan baholanadigan boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar yoxud boshqa shaxsga beriladigan o'zga huquqlar korxonaning ustav fondiga kiritilishi mumkin.

Mulkdor korxonaning ustav fondiga o'zi kiritadigan mol-mulkni mustaqil baholaydi.

3.2. Korxonaning ustav fondini ko'paytirish va kamaytirish mulkdorning qaroriga ko'ra korxonaning ustaviga o'zgartishlar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Agar korxonaning ustav fondi shakllantirilayotganda mulkdor o'z oila a'zolarining umumiy (ulushli yoki birgalikdagi) mulki hisoblangan mol-mulkni korxonaga berayotgan bo'lsa, ushbu mol-mulkning barcha mulkdorlaridan notarial tasdiqlangan rozilik olish talab etiladi.

3.3. Korxona ko'rgan foyda hisobidan zaxira va boshqa jamg'armalar tuzishi mumkin. Jamg'armalarni tashkil etish va ishlatish tartibi to'g'risidagi qaror korxona mulkdori tomonidan qabul qilinadi.

## IV. KORXONANI BOSHQARISH

4.1. Korxona mulkdori korxonani rahbar sifatida yakka boshqaradi, korxona nomidan ishonchnomasiz ish ko'radi, uning manfaatlarini ifodalaydi, korxonaning pul mablag'larini hamda boshqa mol-mulkini tasarruf etadi, shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi, ishonchnomalar beradi, banklarda hisobvaraqlar ochadi, shtatlarni tasdiqlaydi, korxonaning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.

4.2. Korxona mulkdori korxonani rahbar sifatida yakka boshqaradi.

Korxona mulkdori quyidagi huquqlarga ega:

korxona Ustaviga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish;

korxonani qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;

korxonaning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin qolgan foydasidan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish;

korxonaga tegishli mol-mulkni boshqa shaxsga berish, ijaraga berish, garovga qo'yish, boshqa yuridik shaxslarning ustav fondiga hissa sifatida kiritish yoki ushbu mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etish.

Korxona mulkdori qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.3. Korxona mulkdori:

ustav fondini shakllantirishi;

o'ziga qarashli korxonani yakka boshqarishi shart.

Korxona mulkdori zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin

## V. KORXONANI VAQTINCHA BOSHQARISH YOKI BOSHQA SHAXSGA O'TKAZISH

5.1. Korxona mulkdori o'zi vaqtinchalik bo'lmagan taqdirda shu muddatda rahbarlik vazifasini bajarib turishni boshqa jismoniy shaxs zimmasiga yuklash to'g'risida yozma qaror qabul qiladi.

5.2. Korxona mulkdori muvaqqat rahbarning korxona mol-mulkini tasarruf etishga oid huquqini cheklab qo'yishi mumkin.

5.3. Korxona mulkdori vafot etganligi, muomalaga layoqatsizligi, muomala layoqati cheklanganligi yoki bedarak yo'qolgan deb topilganligi oqibatida mulkdorning korxona rahbari vazifasini bajarishi mumkin bo'lmay qolgan taqdirda korxonani boshqarish fuqarolik qonun hujjatlariga va korxonaning ustaviga muvofiq amalga oshiriladi.

5.4. Korxona mulkdori korxonani mol-mulk majmuasi sifatida sotishga, hadya qilishga, vasiyat qilib qoldirishga yoki uni o'zgacha usulda boshqa shaxsga o'tkazishga haqli.

## I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. «JAHONGIR VISOLA ZARAFSHON» xususiy korxonasi (bundan buyon matnda «korxona» deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining «Xususiy korxona to'g'risida»gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida tashkil topgan.

1.2. Korxonaning mulkdori: — Navoiy viloyati Zarafshon shahar 11-kichik tuman 8-uy 32-xonadonda yashovchi 09.02.1984 yilda G'ijduvon tumanida tug'ilgan XOLIQOV SAN'AT SHOMURODOVICH passport raqami AC:0071494, 06.07.2018 yilda Navoiy viloyati Zarafshon shahar IIB tomonidan berilgan.

1.3. Korxonaning pochta manzili: Navoiy viloyati **Zarafshon shahar 11-kichik tuman 8-uy 32-xonadon**

1.4. Korxona o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga amal qiladi.

1.5. Korxona yuridik shaxs hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida bankda hisobvaraqlar ochishga haqlidir, o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin. Shuningdek, korxona to'liq nomi davlat tilida ifodalangan va joylashgan yeri ko'rsatilgan muhrga ega bo'ladi.

1.6. Korxona o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli butun mol-mulki bilan javob beradi. Korxona mulkdori korxonaning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda korxonaning majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi.

1.7. Korxonaning to'liq firma nomi:

To'liq nomi: «JAHONGIR VISOLA ZARAFSHON» xususiy korxonasi.

Qisqa nomi: «JAHONGIR VISOLA ZARAFSHON» XK

## II. FAOLIYAT SOHASI VA MAQSADLARI

2.1. Bozorni zarur xizmatlar va mollar bilan to'ldirish, aholini ishga joylashtirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilish va boshqalar korxonaning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

2.2. Korxona quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

**Beton, qurilish gipsi va sementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish;**

— Sement ishlab chiqarish;
— Ohak va qurilish uchun gips ishlab chiqarish;
— Qurilish maqsadlariga mo'ljallangan gips buyumlar ishlab chiqarish;
— Tayyor beton ishlab chiqarish;
— Quruq beton qorishmalari ishlab chiqarish;
— Tolali sement ishlab chiqarish;
— Oshxona uchun mebel ishlab chiqarish;
— To'shaklar ishlab chiqarish;
— Boshqa mebellar ishlab chiqarish;
— Tayyor metall buyumlarni ta'mirlash;
— Mashina va uskunalarni ta'mirlash;
— Elektron va optik uskunalarni ta'mirlash;
— Turar joy binolarini qurish;
— Yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish;
— Suvoq ishlari;
— Duradgorlik ishlari;

## VI. KORXONANING HUJJATLARINI SAQLASH

6.1. Korxona quyidagi hujjatlarni saqlashga majbur:

— Korxonaning ustavi, shuningdek ustavga kiritilgan va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni;

— Korxonani tashkil etish va korxonaning ustav fondiga pul, pul ko'rinishida bo'lmagan ulushlarni pulda baholashni tasdiqlash to'g'risidagi korxona mulkdorining qarori, shuningdek korxonani tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan boshqa qarorlarni;

— Korxonaning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi guvohnomani;

— Korxonaga tegishli mol-mulkka bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni;

— mustaqil auditorlik tashkilotlari xulosalarini;

— qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni.

6.2. Agarda amaldagi qonun hujjatlari bilan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lmasa, korxona mazkur Ustavning 6.1-bandida ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni doimiy saqlaydi.

## VII. KORXONA FAOLIYATINI TUGATISH

7.1. Korxona uning mulkdori yoki sudning qaroriga ko'ra, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.

7.2. Korxonani tugatish haqidagi yozuv yuridik shaxslarning davlat reyestriga kiritib qo'yilganidan so'ng korxonani tugatish tamomlangan, korxonaning faoliyati esa tugagan hisoblanadi.

## VIII. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Mazkur Ustav korxona davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

8.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan masalalar, qonunda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Ustavga muvofiq tartibga solinadi.

**«JAHONGIR VISOLA ZARAFSHON»**
**xususiy korxonasi mulkdori:**

JAHONGIR VISOLA ZARAFSHON

_______________ **XOLIQOV SAN'AT SHOMURODOVICH**

Ushbu ustavi 5 (besh) varaqdan iborat bo'lib raqamlangan va tikilgan.

Zarafshon shahar davlat xizmatlari markazi direktori

__________ A.Ishankulov

2100640

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"JAHONGIR VISOLA ZARAFSHON" Xususiy korxona

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"JAHONGIR VISOLA ZARAFSHON" XK

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

14.05.2019 722720 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 306419500

Tashkiliy-huquqiy shakli: Xususiy korxona

Joylashgan joyi: Navoiy viloyati, Zarafshon shahri, 11-kichik tuman, 8-uy, 32-xonadon,

Guvohnoma: Navoiy viloyati, Zarafshon shahri, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

YB0346406325

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **"JAHONGIR VISOLA-ZARAFSHON" XK o'rtasida 2022 yilning 13 dekabridagi 2-sonli oldi-sotdi shartnomasi umumiy summasi 39 000 000 (o'ttiz to'qqiz million) so'm**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Zarafshon shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 14.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Zarafshon shahar yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

G.R.CHO‘LIYEV
14.12.2022